MODERN EDUCATION AND DEVELOPMENT
ISSN 3060-4567

# SHAXSNING RIVOJLANISHIDA OLIY TA'LIMNING O'RNI

***Zayniddinova Gulasal Vohidjon qizi*** - *Nizomiy nomidagi TDPU*
*Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi yo'nalishi 2-kurs talabasi*
*Email: voxidjooonovna@gmail.com*
*Tel:+998883875830*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada shaxsning rivojlanishida oliy ta'lim asosiy omil ekanligi keltirilgan.*

***Kalit so'z:*** *Shaxs, oliy ta'lim, könikma, tajriba, ilmiy, madaniy, innovatsion ğoyalar.*

Oliy ta'lim shaxsning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki insonning ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va axloqiy jihatdan yetuk bo'lishiga ham xizmat qiladi. Insonning tanlagan yo'nalishi bo'yicha chuqur bilim olishiga yordam beradi. Universitet va institutlarda talabalarga nazariy bilimlar bilan birga amaliy tajribalar ham beriladi, bu esa ularning kasbiy rivojlanishiga asos yaratadi. Shuningdek, ilmiy izlanish olib borish, yangi innovatsion g'oyalar ustida ishlash kabi jihatlar ham shakllanadi.

Oliy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ularga innovatsion yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Tanqidiy fikrlash insonni hayotdagi har xil vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi. Universitet muhitida talabalar turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi, turli madaniyat va qadriyatlarni hurmat qilishga o'rgatadi.

Oliy ta'lim insonda yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar turli loyihalarda ishtirok etish, jamoaviy ishlash va o'z fikrlarini erkin ifodalash orqali kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Faqatgina kasbiy tayyorgarlik emas, balki insonning shaxs sifatida shakllanishida ham muhim rol

o‘ynaydi. U talabalarda halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni rivojlantiradi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin Oliy ta’lim tez sur’atlar bilan rivojlana boshladi. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yildagi „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonuni muvofiq, Oliy ta’lim o‘rta maxsus yoki kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanadi hamda ikki — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarishning ma’lum davriga qadar Oliy ta’lim o‘n bir yillik umumiy o‘rta ta’lim negizida ham amalga oshiriladi. E’tiqod erkinligiga amal qili-nadigan O‘zbekiston Respublikasida dunyoviy oliy o‘quv yurtlari bilan birgalikda oliy diniy o‘quv yurtlari ham bor. O‘zbekistonda Oliy ta’lim davlat qaramog‘idadir. Mamlakatda universitet Oliy ta’limi ustuvor maqomga ega. Bu tayyorlanayotgan mutaxassislarning jahon darajasida nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lish imkonini beradi. Bunda rasmiy davlat hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Bunda ta’limning davlat standartlari, o‘quv rejalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ularda o‘rganilishi majburiy va ixtiyoriy bo‘lgan fanlar, ixtisoslik kurelari, ularning o‘qitilish tartibi, miqdori, vaqti, nazariy va amaliy ta’lim o‘rtasidagi nisbat, nazariy mashg‘ulotlar, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari, reyting davri, ta’til, bakalavrlarning malakaviy bitiruv ishlari, magistrlarning dissertatsiyalarni yoqlash muddati asosiy pedagogik hujjat — o‘quv rejasida belgilab beriladi. O‘quv rejasida o‘rganiladigan fanlar gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy, ixtisoslik fanlari va ta’limning qo‘shimcha turlari singari qismlarga bo‘linadi. O‘quv rejasidagi fanlar majburiy, maxsus, tanlov va fakultativ ko‘rinishlarida olib borilishi ko‘zda tutilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1.N.Ismoilova, D.Abdullayeva “Ijtimoiy psixologiya”, Toshkent,2013

2. Akramova, D. (2022). Bo’lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta’lim tizimidagi faoliyati. *Science and innovation*, *1*(B8), 322-326.

ISSN 3060-4567

3. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, *1*(B8), 2150-2153.

4. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *13*(8), 19-23.

5. Akramova, D. E. qizi Suvonqulova, MD (2023, January). RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VA MILLIY QADRIYATLAR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 393-396).

6. Akramova, D. E. qizi Azimova, XD (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM YO 'NALISHI TALABALARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 382-385).

7. Ergashevna, A. D. (2023). TARBIYALANUVCHILARDA MOSLASHUVCHANLIK MEHANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, *23*(2), 169-173.

8. Акрамова, Д. Э., & Йўлдошева, Н. (2023). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ МАЖМУИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 362-364).

9. Акрамова, Д. Э., & Бобомуродова, О. Б. (2023). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 352-354).

10. Akramova, D. (2022). ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS-PSYCHOLOGISTS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, *1*(8), 322-326.

ISSN 3060-4567

11. Акрамова, Д. Э. қизи Давронова, ЖС (2023, January). ТАРБИЯ ТИЗИМИ ВА УНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 358-361).

12. Акрамова, Д. Э. қизи Бозорбоева, ДА (2023, January). ЖАМОА–ТАРБИЯ ОБЪЕКТИ ВА СУБЪЕКТИ СИФАТИДА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 355-357).

13. Ergashevna, A. D. (2025). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIALIZATION IN SCHOOLCHILDREN OF THE PREPARATORY GROUP. *SHOKH LIBRARY*.

14. Ibraimov, X., & Akramova, D. (2023). DIDACTIC CHARACTERISTICS OF COMMUNICATIVE TRAINING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *Science and innovation*, *2*(B11), 357-361.